Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



KAPITAL BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR SIFATIDA SUG'URTA KOMPANIYALARI ISHTIROKI

Omonov Sardor O'Imasovich

PhD, Toshkent moliya instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizdagi kapital bozorida institutsional investorlar sifatida sug'urta kompaniyalarning ishtirokini o'rganishda turli tadqiqotchilarning fikrlari hamda yondashuvlari o'rganilgan. Milliy kapital bozorida sug'urta kompaniyalarining aksiyalari ko'rsatkichlari, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyati, listingdan o'tgan sug'urta kompaniyalari ko'rsatkichlari kabilar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kapital bozori, institutsional investor, sug'urta kompaniyasi, aksiya, investitsiya, listing, nominal qiymat, bozor qiymati, dividend.

Abstract: This article studies the opinions and approaches of various researchers in studying the participation of insurance companies as institutional investors in the capital market of our country. Indicators of stocks of insurance companies in the national capital market, investment activities of insurance companies, indicators of listed insurance companies are analyzed.

Key words: capital market, institutional investor, insurance companies, stock, investment, listing, nominal value, market value, dividend.

Аннотация: В данной статье изучаются мнения и подходы различных исследователей при изучении участия страховых компаний в качестве институциональных инвесторов на рынке капитала нашей страны. Анализируются показатели акций страховых компаний на национальном рынке капитала, инвестиционная деятельность страховых компаний, показатели листинговых страховых компаний.

Ключевые слова: рынок капитала, институциональный инвестор, страховые компании, акции, инвестиции, листинг, номинальная стоимость, рыночная стоимость, дивиденд.

KIRISH

Kapital bozorini rivojlantirishda institutsional investorlar sifatida sug'urta kompaniyalari faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, erkin faoliyat ko'rsatishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, investitsion jozibadorlikni oshirish, axborotlar ochiqligi va ishonchligini ta'minlash kabi vazifalar ustuvorlik kasb etmoqda. Sug'urta kompaniyalari kapital bozorining muhim ishtirokchilaridan ekanligini inobatga olgan holda shuni aytishimiz mumkin, sug'urta kompaniyalari investitsiya faoliyatini amalga oshirishi, kapital bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirishi yoki emission faoliyatini tashkil etishi huquqiy jihatdan belgilab qo'yilgan. Bunda mazkur faoliyatni amalga oshirish uchun sug'urta kompaniyasining litsenziya olishi talab qilinmasligini ta'kidlab o'tish lozim.

Sug'urta kompaniyalari asosiy faoliyati natijasida olgan daromaddan maksimal foyda olish maqsadida ushbu mablag'lar evaziga kapital bozoridagi ishtirokini tashkil etishini ta'kidlashimiz lozim. Mazkur amaliyot nafaqat sug'urta kompaniyalari foydasini oshirishga va ular faoliyatini samarali shakllantirishga xizmat qiladi, balki kapital bozorini rivojlantirishda ham qo'l keladi. Shu sababli quyida milliy kapital bozorimizda sug'urta kompaniyalari faoliyatini tahlil qilib o'tamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy olimlardan biri B. Lloyd "faol xususiy sektorsiz samarali kapital bozori bo'lmaydi. Binobarin, kapital bozorining rolini aniqlash bilan bog'liq ko'plab muammolar, asosan, xususiy sektor uchun ijobiy rolni topishda ba'zi cheklavlarni yengib o'tishga urinish bilan bog'liq. Kapital bozorining asosiy vazifasi bozor mezonlariga muvofiq uzoq muddatli mablag'lar oqimini ko'paytirish va yo'naltirish" ^[1] deya ta'kidlab o'tgan.



“Kapital bozorida qimmatli qog‘ozlar, odatda, bir yildan ortiq muddatda bo‘ladi va bu orqali uzoq muddatli investitsiya amalga oshiriladi. Qisqa muddatli investitsiyalar esa, odatda, pul bozorida amalga oshiriladi. Kapital bozorining bir qator jihatlari uning ahamiyatini ochib berishini ta’kidlashimiz lozim. Birinchidan, kapital bozori jismoniy shaxslar va kompaniyalarga o‘z ehtiyojlari uchun mablag‘ jalb qilish imkoniyatini beradi hamda ushbu bozor birlamchi bozor va ikkilamchi bozorga bo‘linadi. Ikkinchidan, iqtisodiy rivojlanishda kapital bozori hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Ushbu bozor jismoniy shaxslar, banklar, moliya institutlari, ko‘chmas mulk va oltin jamg‘armalarini jalb qiladi va shu bilan jamg‘armalarni samarasiz faoliyatdan foyda keltiruvchi faoliyatga yo‘naltiradi. Uchinchidan, tijorat banklari, moliya institutlari, individual investorlar, sug‘urta kompaniyalari, korporatsiyalar va xususiy pensiya jamg‘armalari kapital bozorida asosiy mablag‘ yetkazib beruvchilardir” [2]. Ushbu fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, kapital bozorining asosiy xususiyatlari sifatida uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlar va boshqa aktivlar oldi-sotdi qilinishi va bu kompaniyalar uchun kapital jalb qilishdagi asosiy bozorlardan biri ekanligini aytishimiz mumkin.

F. Saci, S. M. Jasimuddin o‘z tadqiqotlarida “individual investorlar bilan taqqoslaganda institutsional investorlar kattaroq moliyaviy qudratga ega va bozor ma’lumotlarini yig‘ishda hamda professional investitsiyalar qiymatining tahlilini o‘tkazishda keng imkoniyatlarga ega” [3], deya fikr bildirishgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, institutsional investorlarning axborotlarni yig‘ishi va qayta ishlashi natijasida bozordagi o‘z faoliyatini samarali yo‘lga qo‘ya oladi hamda moliyaviy qudratini oshira oladi. Bu esa nafaqat institutsional investorlar uchun, balki o‘sha bozor uchun ham foydadan holi bo‘lmaydi.

D. Kim, H. Kim, D. Jo va J. Oh institutsional investorlarning salohiyatini ifodalashda ularning investitsiya maqsadi, ularni cheklovchi faktorlar, investitsiya hajmi kabi turli jihatlar muhim ahamiyatga egaligini ta’kidlashgan. Shu bilan birga investitsiya salohiyati o‘xshash bo‘lgan institutsional investorlar, odatda, investitsiya portfeli bilan farqlanishini aytib o‘tishgan [4].

S. Chelik va M. Isaksson institutsional investorlarni ularning ma’lum darajada rivojlanish darajasini aks ettiruvchi uchta asosiy toifaga ajratishadi. “Institutsional investorlarning birinchi toifasiga an’anaviy institutsional investorlar kiradi va bunga pensiya fondlari, investitsiya fondlari va sug‘urta kompaniyalari kiradi. Ikkinchi guruh esa muqobil (alternative) institutsional investorlarni o‘z ichiga olib, bular hedj fondlar, xususiy kapital firmalari (private equity firms), suveren fondlar kabilarni tashkil etadi. Uchinchi toifaga o‘z mijozlari nomidan investitsiya kiritadigan aktivlarni boshqaruvchilar (asset managers) kiradi” [5]. Institutsional investorlarning turlari ko‘pligi bois ularni toifalarga ajratgan holda tadqiq qilish ularning mazmun-mohiyati va kapital bozoridagi ahamiyatini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Mahalliy olimlar ham bir qator tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lib, S. Elmirzayev fikricha, “potensial investorlarni jalb qilish maqsadida taqdimotlar o‘tkazish jarayonida investor faoliyati tashkil etilgan davlatda soliqqa tortish darajasini ham hisobga olish lozim” [6]. Kapital bozorini rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan mazkur jihat ham inobatga olinishi zarur.

A. Bozorov kapital bozorini rivojlantirishda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan ba’zi jihatlarni ta’kidlab o‘tgan. “Qimmatli qog‘ozlar turiga qarab emitent va investorlar zarur ishonchli ma’lumotlarning olishlari uchun doimiy ma’lumotlar ro‘yxati shakllantirish borish lozim. Shakllantirilgan ma’lumotlar emitentlarning rasmiy veb saytidan tashqari, qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini nazorat qiluvchi va tartibga soluvchi davlat idoralari, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar savdolarini tashkil etuvchilarning rasmiy veb saytlarida ham joylashtirish lozim. Bu qimmatli qog‘ozlar bozori jozibadorligini oshirishga va undagi ishtirokchilar doirasini kengayishiga va emitent va investorlarning samarali faoliyati va ularni qimmatli qog‘ozlar bozorida doimiy faol ishtirokini ta’minlashga xizmat qiladi” [7].

U. Xalikov “fond bozori faoliyatini yanada rivojlantirish uchun uzoq muddatli va yuqori daromad keltiruvchi vositalarni muomalaga kiritish” [8] muhim ekanligini ta’kidlagan. Bunda kapital bozorining rivojlanishi kapital bozorining tarkibiy qismi sifatida uni rivojlantirishga hamda institutsional investorlar faolligini oshirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inobatga olgan holda ta’kidlash lozimki, kapital bozorini rivojlantirishda institutsional investorlar faolligini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Xususan, sug‘urta kompaniyalarining kapital bozoridagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash ham kapital bozori rivoji uchun, ham sug‘urta sohasida ijobiy natijalar qayd etish uchun ahamiyatli hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kapital bozorida institutsional investorlar sifatida sug‘urta kompaniyalari ishtirokini o‘rganishda kuzatish, qiyoslash, ilmiy abstraksiyalash, statistik tahlil, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlariga ko'ra 2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra aksiyalar emissiya qilgan sug'urta kompaniyalari soni 15 tani tashkil etgan ^[9]. 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 730-son Qonuni 2022-yil 25-fevraldan kuchga kirishi munosabati bilan "sug'urtalovchilar aksiyadorlik jamiyati shaklida" ^[10] tashkil etilishi belgilandi. Natijada 2023-yil 1-noyabr holatiga ko'ra aksiyalar emissiya qilgan sug'urta kompaniyalari soni 42 tani tashkil etgan (1-jadval).

1-jadval: Sug'urta kompaniyalari tomonidan emissiya qilingan aksiyalar tahlili (01.01.2023 holatiga) ^[11]

No	Sug'urta kompaniyalari	Chiqarilgan aksiyalarning jami hajmi (mln. so'm)	Aksiyalarning nominal qiymati (so'm)	Aksiyalarning umumiy soni
1.	O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ	282 216,41	1 000,00	282 216 408
2.	O'zagrosug'urta AJ	108 955,94	3 280,00	33 218 274
3.	"Ingo Uzbekistan" sug'urta AJ	45 212,50	1 300,00	34 778 848
4.	Agros Hayot SK AJ	45 000,00	1 000,00	45 000 000
5.	Kapital Sug'urta aksiyadorlik jamiyati	40 000,00	1,00	40 000 000 000
6.	"SQB Insurance"sug'urta kompaniyasi AJ	45 501,75	1 000,00	45 501 750
7.	Kafolat sug'urta kompaniyasi AJ	45 000,00	1,00	45 000 000 000
8.	Alskom sug'urta kompaniyasi AJ	40 181,95	1 380,00	29 117 358
9.	"Euroasia Life Insurance"AJ	46 620,28	1 000,00	46 620 275
10.	Universal Sug'urta AJ	25 005,66	0,01	2 500 566 000 000
11.	"Impex Insurance" AJ sug'urta tashkiloti	35 000,00	1 000,00	35 000 000
12.	"Kafolat Hayot Insurance" AJ	35 000,00	1 000,00	35 000 000
13.	"Apex Insurance" AJ	72 000,00	1000,00	72 000 000
14.	"Global Insurance Group" ST AJ	20 000,00	1 000,00	20 000 000
15.	Agro Invest Sug'urta AJ	10 126,00	1 000,00	10 126 000
16.	"ALFA INVEST" SK AJ	53 312,64	10,00	5 331 263 800
17.	"Temiryo'l-sug'urta" AJ	50 000,00	1 000,00	50 000 000
18.	"Gross" SK AJ	45 414,45	1 000,00	45 414 450
19.	"Xalq sug'urta" AJ	45 000,00	1 000,00	45 000 000
20.	"Imkon-sug'urta" AJ	45 000,00	1,00	45 000 000
21.	"Omad sug'urta" AJ	45 000,00	1 000,00	45 000 000
22.	"Semurg sug'urta" AJ QK	45 000,00	5 000,00	9 000 000
23.	"Azimuth Insurance Company" AJ XK ST	39 566,53	1 000,00	39 566 531
24.	"Inson" ST AJ	36 610,36	100,00	366 103 622
25.	"Asia Insurance" SK AJ	36 558,00	1 000,00	36 558 007
26.	"APEX Life Insurance" AJ	36 000,00	500,00	72 000 000
27.	"Sharq-sug'urta" AJ	36 000,00	1 000,00	36 000 000
28.	"New Life" SK AJ	35 900,00	1 000,00	35 900 000
29.	"Kafil-sug'urta" AJ	35 701,00	1 000,00	35 701 000
30.	"Ishonch" SK AJ QK	35 375,00	1 000,00	35 375 000
31.	"ASKO-VOSTOK" AJ QK ST	35 186,43	100,00	351 864 303
32.	"My Insurance" AJ ST	35 050,00	1 000,00	35 050 000
33.	"Hamkor sug'urta" AJ	35 000,00	5 000,00	7 000 000
34.	"Alfa Life Insurance" AJ	35 000,00	1 000,00	35 000 000
35.	"Perfect Insurance" AJ ST	35 000,00	5 000,00	7 000 000
36.	"Garant Insurance Group" AJ	25 000,00	1 000,00	25 000 000




№	Sug'urta kompaniyalari	Chiqarilgan aksiyalarning jami hajmi (mln. so'm)	Aksiyalarning nominal qiymati (so'm)	Aksiyalarning umumiy soni
37.	"ARIA" ST AJ	20 000,00	1 000,00	20 000 000
38.	"O'zbekinvest Hayot" SK AJ	20 000,00	1 000,00	20 000 000
39.	"DD General Insurance" AJ ST	20 000,00	1 000,00	20 000 000
40.	"Unipolis" AJ ST	20 000,00	1,00	20 000 000 000
41.	"Farovon sug'urta" AJ	16 038,08	5 000,00	3 207 216
42.	"Fortuna Insurance" AJ ST	15 000,00	1 000,00	15 000 000

Tahlillar ko'rsatadiki, eng katta qiymatdagi aksiyalar emissiyasini amalga oshirgan sug'urta kompaniyasi sifatida 282 mlrd. so'mdan ortiq qiymatdagi aksiyalarni chiqargan O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJni keltirishimiz mumkin. Shuningdek, bu borada eng past ko'rsatkich 10 mlrd. so'mdan ortiq ko'rsatkich bilan Agro Invest Sug'urta AJ keltirilgan (1-jadval).

E'tiborli jihati shundaki, mazkur sug'urta kompaniyalari orasida nominal qiymati eng katta qiymatga ega sug'urta kompaniyalari sifatida "Semurg sug'urta" AJ QK (5 000 so'm), "Hamkor sug'urta" AJ (5 000 so'm), "Perfect Insurance" AJ QK (5 000 so'm), "Farovon sug'urta" AJ (5 000 so'm) O'zagrosug'urta AJ (3280 so'm), Alskom sug'urta kompaniyasi AJ (1380 so'm) va "Ingo Uzbekistan" sug'urta AJ (1300 so'm)larni sanab o'tishimiz mumkin. Eng kichik nominal qiymatdagi aksiyalarga Kafolat sug'urta kompaniyasi AJ (1 so'm), Kapital Sug'urta AJ (1 so'm), "Unipolis" AJ ST (1 so'm), "Imkon-sug'urta" AJ (1 so'm), Universal Sug'urta AJ (0,01 so'm) kabi sug'urta kompaniyalari egalik qilmoqda. Nominal qiymatning bunday kichik qiymatda bo'lishi ma'lum bir darajada sug'urta kompaniyasining investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday kompaniyalar samarali faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa-da, xorijiy investorlarni jalb qilishda hamda ularning ulushi bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirishda muammoli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu hisob-kitob jarayonida juda kichik qiymatlardan foydalanilganligi sababli hisob-kitoblarda noqulayliklarni yuzaga keltiradi. Bunday noqulayliklar ham ma'lum bir darajada milliy kapital bozorini rivojlantirish, mahalliy institutsional faoliyatini samarali tashkil etish va xorijiy institutsional investorlarni jalb qilishda to'siq bo'lishi mumkin (1-jadval).

"Toshkent" RFBda listingdan o'tgan sug'urta kompaniyalari aksiyalari tahlili orqali ko'rish mumkinki, 2022-yil natijalariga ko'ra jami 42 ta sug'urta kompaniyasidan faqatgina 7 ta sug'urta kompaniyasi listingdan o'tganligini ta'kidlash lozim (1-rasm).



1-rasm: "Toshkent" RFBda listingdan o'tgan sug'urta kompaniyalari aksiyalari tahlili, so'mda (30.12.2022 holatiga) ^[12]

Sug'urta kompaniyalarining kapital bozorida investitsiya faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sug'urta kompaniyalari milliy kapital bozorimizda investitsiya faoliyati orqali ham ishtirok etmoqda. Quyida milliy sug'urta



kompaniyalarining qimmatli qog'ozlarga kiritgan investitsiyalari hajmi va boshqa kompaniyalar aksiyalaridan olgan dividend ko'rinishidagi daromadlarini tahlil qilib o'tamiz.

2-jadval: O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJning investitsiya faoliyati tahlili ^[13]

№	Ko'rsatkich	1.01.2020	1.01.2021	1.01.2022
1.	Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar (mazkur sana holatiga) (ming so'm)	549 427 931,5	549 417 083,7	542 338 906,9
2.	Dividend ko'rinishidagi daromadlar (ming so'm)	15 683654,8	5 141 799,4	4 098563,0

2-jadvalda O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJning qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari tahlili keltirilgan. Unga ko'ra so'nggi 3 yillik ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar 2020-yil yanvar holatiga 549 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 542 mlrd. so'mga pasaygan. Dividend ko'rinishidagi daromadlar esa 2020-yildagi 15,7 mlrd. so'mdan 2020-yilda 4,10 mlrd. so'mga kamaygan. Demak, ma'lumotlardan ko'rinadiki, O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ tahlil qilingan davrda kapital bozoridagi faolligi pasaygan.

3-jadval: O'zagrosug'urta AJning investitsiya faoliyati tahlili ^[14]

№	Ko'rsatkich	1.01.2018	1.01.2019	1.01.2020	1.01.2021
1.	Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar (mazkur sana holatiga) (ming so'm)	27596829,10	32352879,80	33 444 343,8	32 638 675,7
2.	Dividend ko'rinishidagi daromadlar (ming so'm)	2987929,90	4102712,60	5 930 335,5	3 597 588,9

3-jadvalda O'zagrosug'urta AJning investitsiya faoliyati 2018-2021-yillarda tahlil qilingan. Xususan, 2018-yil yanvar holatiga mazkur sug'urta kompaniyasining qimmatli qog'ozlarga investitsiyasi hajmi 27,60 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, dividend ko'rinishidagi daromadlari 3 mlrd. so'mga yaqin bo'lgan. 2021-yil 1-yanvar holatiga esa qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 32,64 mlrd. so'mga yetdi va 2018-yilga nisbatan 5 mlrd. so'mga oshgan. Ikkinchi ko'rsatkich esa 2021-yil boshida 3,60 mlrd. so'm bo'lgan. Tahlil qilingan yillarda eng yuqori ko'rsatkichlar 2020-yil 1-yanvar holatiga to'g'ri kelib, bu vaqtda qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hajmi 33,44 mlrd. so'm va dividend ko'rinishidagi daromadlar 5,93 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Yana bir sug'urta kompaniyasi faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak, "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJ so'nggi yillar davomida o'z investitsiya faoliyatini faollashtirganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Xususan, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hajmini tahlil qiladigan bo'lsak, 2018-yil boshida bu ko'rsatkich 25 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan va bu ko'rsatkich 2021-yil yanvar holatiga ko'ra 44 mlrd. so'mga yaqinlashgan. Dividend ko'rinishidagi daromadlar esa bu davr mobaynida 3,95 mlrd. so'mdan 4,10 mlrd. so'mgacha oshganligini kuza-tishimiz mumkin (4-jadval).

4-jadval: "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJning investitsiya faoliyati tahlili ^[15]

№	Ko'rsatkich	1.01.2018	1.01.2019	1.01.2020	1.01.2021
1.	Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar (mazkur sana holatiga) (ming so'm)	25 165 762,8	34 461 539,9	46 190 013,0	43 882 191,8
2.	Dividend ko'rinishidagi daromadlar (ming so'm)	3 945 285,1	14 946 853,9	13 112 162,1	4 103 511,9

4-jadvalda tahlil qilingan davr mobaynida qimmatli qog'ozlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich 2020-yil yanvar holatiga 46 mlrd. so'mdan ortiqni tashkil etganligini hamda dividend ko'rinishidagi daromadlarning eng yuqori ko'rsatkichi 2019-yil yanvar holatiga 15 mlrd. so'mga yaqin bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur sug'urta kompaniyasida ikkinchi ko'rsatkich 2020-yildan so'ng keskin pasayganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kapital bozorida institutsional investorlar sifatida sug'urta kompaniyalari ishtirokini o'rganishda quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

Birinchidan, mahalliy kapital bozoridagi sug'urta kompaniyalari aksiyalari daromadlilik darajasi qoniqarli darajada emas. Potensial investorlarning bo'sh mablag'larini kapital bozoriga jalb qilish uchun kapital bozoridagi qimmatli qog'ozlarning daromadlilik qoniqarli darajada bo'lishi lozim. Aks holda potensial investorlar ko'proq daromad olish uchun o'z mablag'larini bank omonatlariga yoki o'z salohiyati va tajribasidan kelib chiqqan holda boshqa biznes faoliyatiga yo'naltirishi mumkin.



Ikkinchidan, O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirish va unda institutsional investorlar sifatida sug'urta kompaniyalari faolligini oshirish uchun investor yoki moliyaviy vositachi sifatida xorijiy institutsional investorlarni jalb etishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, milliy sug'urta kompaniyalari orasida tarkibida davlat ulushi mavjud sug'urta kompaniyalari soni ko'pligini inobatga olgan holda mazkur kompaniyalarning kapital bozoridagi ishtirokini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim. Xususan, davlat ulushi mavjud sug'urta kompaniyalari tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish zarur. Bu orqali kapital bozorida sug'urta kompaniyalarining vositachilik faoliyati yo'lga qo'yiladi va institutsional investorlar faolligini oshirish imkoni paydo bo'ladi.

To'rtinchidan, sug'urta kompaniyalarining kapital bozoridagi faolligini oshirishda sug'urta kompaniyalarining listingdan o'tishini, shuningdek, aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etishini yo'lga qo'yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bruce Lloyd. The Role of Capital Markets in Developing Countries. // Intereconomics, ISSN 0020-5346, Verlag Weltarchiv, Hamburg, Vol. 12, Iss. 3/4, 1977. – pp. 96-102; <https://www.econstor.eu/bitstream/10419/139458/1/v12-i03-a09-BF02928701.pdf>
2. <https://www.wallstreetmojo.com/capital-market/> – moliya, buxgalteriya hisobi va investitsiyalar bilan bog'liq ma'lumotlar e'lon qilinuvchi veb-sayt ma'lumotlari
3. Fateh Saci, Sajjad M. Jasimuddin. Does the research done by the institutional investors affect the cost of equity capital? // Finance Research Letters. 3 November, 2020. – P. 11; <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612320316482#bib0023>
4. Donghan Kim, Hyun-Dong Kim, Denis Yongmin Joe, Ji Yeol Jimmy Oh. Institutional investor heterogeneity and market price dynamics: Evidence from investment horizon and portfolio concentration. // Journal of Financial Markets. 16 October 2020. – P. 25; <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1386418120300732>
5. Serdar Çelik, Mats Isaksson. Institutional Investors as Owners: Who Are They and What Do They Do? // OECD Corporate Governance Working Papers No. 11. December 2013. – P. 36; <https://www.oecd-ilibrary.org/docserver/5k3v1dvm-fk42-en.pdf?expires=1605509112&id=id&accname=guest&checksum=7F65B866A966CB86DA1CD71C1C0F8D28>
6. Elmirzayev, S. (2019) "The Practice And Analysis Of Mass Positioning Of Shares Of Joint-Stock Companies," International Finance and Accounting: Vol. 2019: Iss. 1, Article 3. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss1/3>
7. A. R. Bozorov. Real sektor korxonalarini qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TMI, 2022. – 23 b.
8. U. R. Xalikov. O'zbekistonda fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: TDIU, 2017. – 8 b.
9. http://deponet.uz/sites/default/files/editor/spisok_ao_uz_010222_0.pdf – O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari
10. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi 730-sonli Qonuni, 23.11.2021. 39-modda. <https://lex.uz/docs/5739117>
11. https://deponet.uz/sites/default/files/editor/spisok_ao_uz_011122.pdf – O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan
12. https://www.uzse.uz/isu_infos?page=3 – "Toshkent" RFB rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
13. <https://uzbekinvest.uz/uploads/documentation/69.pdf> – O'zbekinvest eksport-import sug'urta kompaniyasi AJ rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
14. https://www.agros.uz/uz/inv_cat/1/ – O'zagrosug'urta AJ rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan
15. http://www.kafolat.uz/#uz/info/for_shareholders/financial_reporting/page/2/ – "Kafolat sug'urta kompaniyasi" AJning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.